DEVELOPMENT TRENDS OF INSTRUCTIONS IN EVERYDAY DISCOURSE

Dilnoza Xasanova

Andijan State University

Lecturer, Department of Foreign Languages Philology

E-mail: example@gmail.com

MAISHIY DISKURSDA INSTRUKSIYALARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Dilnoza Xasanova
Andijon davlat universiteti
Xorijiy tillar filologiyasi kafedrsai o‘qituvchisi
E-mail: example@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada maishiy diskursdagi instruktsiyalarning rivojlanish tendensiyalari ingliz va o‘zbek tillari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an’anaviy og‘zaki instruktsiyalardan tortib zamonaviy raqamli mikroinstruksiyalargacha bo‘lgan transformatsion jarayonlar o‘rganiladi. Shuningdek, multimodal kommunikatsiya, qisqa instruktsion formulalar va persuaziv-direktiv birliklarning pragmatik xususiyatlari real misollar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье анализируются тенденции развития инструкций в бытовом дискурсе на примере английского и узбекского языков. В ходе исследования были изучены трансформационные процессы — от традиционных устных инструкций до современных цифровых микроинструкций. Кроме того, на основе реальных примеров были проанализированы прагматические особенности мультимодальной коммуникации, кратких инструктивных формул и персуазивно-директивных единиц.

Abstract

This article analyzes the development trends of instructions in everyday discourse based on the examples of the English and Uzbek languages. The study examines transformational processes ranging from traditional oral instructions to modern digital micro-instructions. In addition, the pragmatic features of multimodal communication, short instructional formulas, and persuasive-directive units are analyzed through real examples.

Kalit so‘zlar: maishiy diskurs, instruksiya, mikroinstruksiya, pragmatika, raqamli diskurs, multimodallik, persuaziv, motivatsion, ogohlantiruvchi va kommunikativ strategiyalar.

Diskurs zamonaviy tilshunoslikning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. G.Brown va G.Yule diskursni tilning real kommunikativ jarayondagi qo‘llanish shakli sifatida tavsiflaydi [1, 27-b.]. T.A. van Deykning fikricha, diskurs matn, kommunikativ vaziyat va kognitiv modellar birligidan tashkil topadi [2, 45-b.].

Maishiy diskurs insonlarning kundalik hayotdagi muloqotini qamrab olib, unda instruktsiyalar muhim kommunikativ birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi instruktsiyalarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Telegram, Instagram, TikTok va YouTube platformalarida qisqa, emotsional va multimodal instruktsiyalar keng qo‘llanmoqda. Shu sababli maishiy instruktsiyalarning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

V.I.Karasik maishiy diskursni yaqin kommunikativ munosabatlarga asoslangan kundalik muloqot turi sifatida izohlaydi [3, 189-b.].

N.Fairclough diskursning ijtimoiy-amaliy tabiatini alohida ta’kidlab, kommunikativ birliklarning pragmatik vazifalariga e’tibor qaratadi [5, 71-b.].

J.Searle direktiv nutq aktlarini adresatni ma’lum harakatni bajarishga undovchi birliklar sifatida tavsiflaydi [6, 11-b.].

D.Crystal internet kommunikatsiyasida qisqa va emotsional birliklarning kuchayib borayotganligini qayd etadi [7, 54-b.].

Maqolada diskurs tahlili, pragmatik tahlil, qiyosiy-tipologik metod hamda multimodal tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida Telegram, Instagram, TikTok va YouTube platformalaridagi ingliz va o‘zbek tilidagi instruktsion birliklar tanlab olindi.

1. An’anaviy instruktsiyalardan raqamli mikroinstruksiyalarga o‘tish

Maishiy diskursdagi instruktsiyalar tarixiy rivojlanish davomida sezilarli transformatsiyaga uchradi. Avvallari instruktsiyalar asosan og‘zaki shaklda ifodalangan bo‘lsa, zamonaviy kommunikatsiyada ular qisqa, multimodal va persuaziv xarakter kasb etmoqda. Masalan, an’anaviy instruktsiyalar:

– *“Eshikni yopib qo‘y.”*
– *“Ovqatni issiq holda ye.”*

Zamonaviy raqamli instruktsiyalar:

– *“Try this instead…”*
– *“👇 Linkni bosing”*
– *“Swipe left”*

Ushbu birliklar maksimal ixchamlik tamoyiliga asoslanadi hamda adresatning diqqatini tez jalb qilishga xizmat qiladi.

1-jadval. Instruktsiyalarning rivojlanish tendensiyalari

Davr	Instruktsiya turi	Misol	Asosiy xususiyat

An’anaviy davr	Og‘zaki instruktsiya	“Uyga ertaroq kel.”	Bevosita muloqot
Yozma davr	Rasmiy instruktsiya	“Topshiriqni yuklang.”	Standartlashuv
Raqamli davr	Mikroinstruksiya	“Swipe left”	Qisqalik va tezkorlik
Multimodal davr	Emoji+matn instruktsiyasi	“👇 Linkni bosing”	Vizual urg‘u

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, instruktsiyalar rivojlanishi davomida kommunikativ iqtisod tamoyili kuchayib bormoqda. Ayniqsa, raqamli platformalarda instruktsiyalar minimal til birliklari orqali maksimal pragmatik ta’sirni yuzaga keltirmoqda.

2. Pragmatik tendensiyalar

Maishiy instruktsiyalarning asosiy pragmatik tendensiyalaridan biri xushmuomalalik strategiyalarining kuchayishidir. Brown va Levinson nazariyasiga ko‘ra, kommunikatsiyada adresatning “yuzini saqlash” muhim omil hisoblanadi, 102-b.].Masalan:

– *“Could you open the window?”*

– *“Please try this method instead.”*

Mazkur birliklarda buyruq yumshatilgan shaklda ifodalanmoqda. O‘zbek tilida esa:

– *“Iltimos, derazani yopib yuboring.”*

– *“Buni sinab ko‘ring.”*

kabi birliklar odob va hurmat strategiyasiga asoslanadi.

3. Multimodal kommunikatsiyaning kuchayishi

Zamonaviy maishiy diskursda instruktsiyalar matn bilan cheklanib qolmayapti. Emoji, audio, video va grafik elementlar instruktsiyaning kommunikativ ta’sirini kuchaytirmoqda. Masalan:

– *“⚠ Don’t forget this step!”*

– *“👇 Batafsil havola bio’da”*

Bu birliklarda emoji pragmatik urg‘u vositasi sifatida xizmat qilmoqda. D.Crystal internet kommunikatsiyasida grafik elementlarning kommunikativ vazifasi ortib borayotganligini ta’kidlaydi [7, 87-b.].

1-chizma. Zamonaviy maishiy instruktsiyalarning modeli

AN’ANAVIY INSTRUKTSIYA

↓

QISQA INSTRUKTSIYA

↓

MIKROINSTRUKTSIYA

↓

MULTIMODAL INSTRUKTSIYA
(text + emoji + video + audio)

Mazkur chizma instruktsiyalarning rivojlanish tendensiyasini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida ayniqsa mikroinstruksiyalarning TikTok va Instagram platformalarida faol qo‘llanishi kuzatildi.

4. Kommunikativ strategiyalarning transformatsiyasi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy maishiy instruktsiyalar quyidagi strategiyalar asosida shakllanmoqda:

1. Persuaziv strategiya - foydalanuvchini muayyan harakatni bajarishga ishontirishga xizmat qiladi. Bunday instruktsiyalarda direktivlik yashirin shaklda ifodalanadi va unda reklama, maslahat yoki tavsiya ohangi kuchli bo‘ladi. Asosiy maqsad — adresatni muayyan xatti-harakatga undash. Masalan:

“Buni sinab ko‘ring — natijadan hayratda qolasiz!”
“Try this instead…”
“Don’t make this mistake…”

Bu strategiyada emotsional birliklar, kuchaytiruvchi sifatlar va ijobiy baholovchi vositalar faol qo‘llaniladi. Persuaziv instruktsiyalar ko‘pincha go‘zallik va yuz parvarishi (beauty) bloglar, taom tayyorlash (cooking) kontent, life-hack videolar va reklama diskursida uchraydi.

Norman Fairclough fikricha, zamonaviy diskursda persuaziya tilning eng muhim pragmatik funksiyalaridan biri hisoblanadi.[5. 34:259]

2. Motivatsion strategiya adresatni ruhlantirish, qo‘llab-quvvatlash va faoliyatga ilhomlantirishga qaratilgan. Bu strategiyada instruktsiya buyruq shaklida emas, balki psixologik rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi.Masalan:

“Siz ham buni uddalay olasiz!”
“Never give up!”
“Har kuni ozroq harakat qiling.”

Motivatsion instruktsiyalar sport, o‘z-o‘zini rivojlantirish(self-development), ta’lim va sog‘lom turmush tarziga oid diskurslarda keng qo‘llaniladi. Bunday konstruktsiyalar adresatda ijobiy emotsional holat hosil qiladi va kommunikativ yaqinlikni kuchaytiradi. Bu strategiyada ijobiy leksika; undov gaplar; qisqa motivatsion formulalar; emotikon va emoji birliklari faol ishlatiladi.

3. Ogohlantiruvchi strategiya adresatni xato, xavf yoki salbiy oqibatlardan saqlashga qaratiladi. Ushbu strategiyada ehtiyotkorlik semantikasi ustuvor bo‘ladi.

Masalan:

“Bunday qilmang!”
“Do not touch!”

“Issiq suvga ehtiyot bo‘ling.”
“Warning: dangerous!”
Raqamli diskursda bunday instruktsiyalar clickbait uslubida ham ifodalanadi!”
Ogohlantiruvchi instruktsiyalar texnik qo‘llanmalar, tibbiy tavsiyalar, oshxona retseptlari va internet xavfsizligi diskursida faol uchraydi. Pragmatik jihatdan ular adresatning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.
4. Kooperativ strategiya adresant va adresat o‘rtasida yaqinlik hamda hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu strategiyada buyruq ohangi yumshatiladi va instruktsiya birgalikdagi harakat sifatida taqdim etiladi. Masalan:
“Keling, birgalikda tayyorlaymiz.”
“Let’s try this together.”
“Endi keyingi bosqichga o‘tamiz.”
Kooperativ strategiya ayniqsa YouTube tutoriallari, online kurslar va Telegram kanallarida keng qo‘llanadi. Bu usul foydalanuvchida muloqotga jalb etilganlik hissini hosil qiladi.
Teun A. van Dijk ta’kidlaganidek, kommunikativ strategiyalar ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim pragmatik vosita hisoblanadi[3.35:308].
Shunday qilib, zamonaviy maishiy instruktsiyalar an’anaviy buyruq-tipidagi konstruktsiyalardan uzoqlashib, ko‘proq persuaziv, motivatsion, ogohlantiruvchi va kooperativ xarakter kasb etmoqda. Bu holat raqamli kommunikatsiyaning antropotsentrik va interaktiv tabiatini aks ettiradi.

Mazkur formulalarda instruktsiya bilan bir qatorda auditoriyani jalb qilish maqsadi ham mavjud.
Xulosa qilib aytganda, maishiy diskursdagi instruktsiyalar zamonaviy kommunikatsiyada sezilarli transformatsiyaga uchramoqda. An’anaviy og‘zaki instruktsiyalar o‘rnini qisqa, emotsional va multimodal mikroinstruksiyalar egallamoqda.
Raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi instruktsiyalarning pragmatik, struktur va kommunikativ xususiyatlarini o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa, emoji, video va qisqa formulalarning keng qo‘llanishi zamonaviy maishiy diskursning asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.
Kelgusida maishiy instruktsiyalarni sun’iy intellekt, korpus lingvistikasi va multimodal tahlil asosida tadqiq etish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 288 p.
2. Teun A. van Dijk. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 267 p.
3. Teun A. van Dijk. *Discourse and Power*. — New York: Palgrave Macmillan, 2008. — 308

p.
4. Karasik V.I. Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. – Volgograd: Peremena, 2002. – 477 s.
4. Fairclough N. Language and Power. — London: Longman, 1989. — 259 p.
5. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992. – 259 p.
6. Searle J.R. A Classification of Illocutionary Acts // Language in Society. – 1976. – Vol. 5. – №1. – P. 1–23.
7. Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. – London: Routledge, 2011. – 192 p.
8. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.